




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyul)

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyul oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 6 330,4 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 109,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,056 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 10,7 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 6,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 3,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishda – 6,6 % ga kamayishi kuzatildi.

\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,021 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 080,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,056 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,3 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 22,7 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,6 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,3 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 22,7 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,6%.


## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 187,1 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,955 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 96,1 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,968 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 68,1 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 31,6 % tashkil etdi.





**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)**

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-iyul	2020 - yil yanvar-iyul	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	100,2	201,5	-101,3
<b>Issiqlik energiyasi – ming Gkal:</b>	47,7	59,7	-12,0
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:</b>	33 862,0	30 889,0	2 973,0
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	7 542,0	4 521,0	3 021,0
<b>Aroq – ming liter:</b>	37,2	201,2	-164,0
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming liter:</b>	4,8	7,9	-3,1
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming liter:</b>	301,8	406,6	-104,8
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	51 301,3	54 173,5	-2 872,2
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	14 249,4	7 576,2	6 673,2
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	3 270,47	2 564,0	706,47
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	36 108,0	32 795,4	3 312,6
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	65 513,7	55 345,3	10 168,4


Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-iyul	2020 - yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	17 361,8	15 031,9	2 329,9

**Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:**

13 431,0      12 280,0      1 151,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 101,3 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi 12,0 ming Gkal. ga, aroq 164,0 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 3,1 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 104,8 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 2 872,2 tonnaga kamaygan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-iyul oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,7 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-iyul oylarida bu ko‘rsatkich 5,7 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 47,5 % dan 46,9 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,16 % dan 0,19 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 40,5 % dan 43,2 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 11,9 mldr. so‘mlik (2020 - yil yanvar-iyul oylarida 8,0 mldr. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2 968,4 mldr. so‘mlik (2 421,9 mldr. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 364,0 mldr. so‘mlik (339,8 mldr. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 2 736,4 mldr. so‘mlik (2 065,0 mldr. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



### **Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2021 - yil yanvar-iyul mldr. so‘m</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>6 330,4</b>	<b>109,8</b>
Urganch shahri	1 089,2	110,3
Xiva shahri	79,3	104,2
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	246,7	108,3
Gurlan tumani	278,2	116,7
Qo‘shko‘pir tumani	193,3	145,4
Urganch tumani	365,6	116,5
Hazorasp tumani	182,7	111,2
Tuproqqa'l'a tumani*	2 964,5	105,7
Xonqa tumani	301,9	104,0
Xiva tumani	87,6	62,2
Shovot tumani	353,9	107,4
Yangiariq tumani	99,9	61,0
Yangibozor tumani	87,6	106,8


Yuqorida jadvalning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish,

kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materialllari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.




### Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-iyuliga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 145,4 %, Gurlan tumanida 116,7 %, Urganch tumanida 116,5 %, Hazorasp tumanida 112,2 %, Urganch shahri 110,3 %, Bog'ot tumanida 108,3 %, Shovot tumanida 107,4 %, Yangibozor tumanida 106,8 %, Tuproqqa'l'a tumanida 105,7 %, Xiva shahri 104,2 %, Xonqa tumanida 104,0 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI  
2020 - YIL YANVAR-IYUL OYLARIغا NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,8 %), Urganch shahri (17,2 %), Urganch (5,8 %), Shovot (5,6 %), Xonqa (4,8 %), Gurlan (4,4 %), Bog'ot (3,9 %) hamda Qo'shko'pir (3,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (1,4 %), Yangibozor tumaniga (1,4 %) va Xiva shahri (1,2 %) to'g'ri kelmoqda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

**Iqtisodiy faoliyat turlari:**
**2021 - yil  
yanvar-iyul**
**2020 - yil  
yanvar-iyul**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari  
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi**

**6330,4**
**5101,5**

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash**

**1,3**
**1,1**

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa  
faoliyat

**1,3**
**1,1**

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

**6080,7**
**4834,7**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**892,5**
**727,3**

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**224,6**
**161,4**

To'qimachilik mahsulotlari ishlab  
chiqarish

**1438,8**
**1019,1**

Kiyim ishlab chiqarish

**33,3**
**39,4**

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab  
chiqarish

**3,4**
**3,1**

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va  
to'qish uchun materillallari, ishlab  
chiqarish

**17,7**
**15,2**

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab  
chiqarish

**48,9**
**31,2**

Yozilgan materiallarni nashr qilish va  
aks ettirish

**0,7**
**0,8**


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2021 - yil yanvar-iyul</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul</b>
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	0,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	12,8	21,7
Asosiy farmasevtika	11,7	7,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	52,5	48,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	195,2	156,7
Metallurgiya sanoati	17,3	28,2
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	88,6	97,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	12,9	12,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	72,9	12,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2869,8	2376,1
Mebel ishlab chiqarish	21,6	15,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	54,9	51,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	9,6	9,2
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>187,1</b>	<b>223,4</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>61,3</b>	<b>42,3</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 3 963,1 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar - iyul



2020 - yil yanvar - iyul



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 951,1 mlrd. so'mni, alkogol ichimliklar 4,3 mlrd. so'mni va 3 007,7 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 122,6 %, 44,6 % va 111,9 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,6 % ni (2020 - yil yanvar- iyul oylarida 68,1 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 211,7 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2 319,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 476,7 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 – yilning yanvar-iyul oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3963,1</b>	<b>100,0</b>	<b>114,1</b>
Urganch shahri	605,2	15,3	135,2
Xiva shahri	62,6	1,6	121,7
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	117,8	3,0	133,6
Gurlan tumani	99,5	2,5	100,1
Qo'shko'pir tumani	57,3	1,4	118,6
Urganch tumani	136,2	3,4	105,2
Hazorasp tumani	53,8	1,3	112,3
Tuproqqa'l'a tumani	2394,1	60,4	109,9
Xonqa tumani	205,1	5,2	117,3
Xiva tumani	43,2	1,1	93,4
Shovot tumani	81,7	2,1	113,5
Yangiariq tumani	48,0	1,2	114,7
Yangibozor tumani	58,6	1,5	122,4

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 60,4 % ni, Urganch shahrinda 15,3 % ni, Xonqa tumanida 5,2 % ni, Urganch tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (114,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrinda

(135,2 %), Bog‘ot tumanida (133,6 %), Yangibozor tumanida (122,4 %), Xiva shahrida (121,7 %), Qo‘shko‘pir tumanida (118,6 %), Xonqa tumanida (117,3 %) va Yangiariq tumanida (114,7 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2021 - yilning yanvar-iyul oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>951,1</b>	<b>100,0</b>	<b>122,6</b>
Urganch shahri	369,2	38,8	135,5
Xiva shahri	17,3	1,8	92,7
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	78,0	8,2	115,1
Gurlan tumani	78,9	8,3	150,8
Qo‘shko‘pir tumani	26,0	2,7	134,3
Urganch tumani	84,0	8,8	101,9
Hazorasp tumani	28,7	3,0	147,3
Tuproqqa'l'a tumani	10,6	1,1	110,3
Xonqa tumani	128,1	13,5	108,3
Xiva tumani	20,7	2,2	87,9
Shovot tumani	48,5	5,1	110,6
Yangiariq tumani	21,6	2,3	110,6
Yangibozor tumani	39,5	4,2	138,8

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 38,8 % ,

shuningdek, Xonqa tumanida 13,5 %, Urganch tumanida 8,8 %, Gurlan tumanida 8,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Gurlan tumanida (150,8 %), Hazorasp tumanida (147,3 %), Yangibozor tumanida (138,8 %), Urganch shahrida (135,5 %), Qo'shko'pir tumanida (134,3 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021 - yilning yanvar-iyul oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 007,7</b>	<b>100,0</b>	<b>111,9</b>
Urganch shahri	231,7	7,7	139,9
Xiva shahri	45,3	1,5	138,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	39,8	1,3	195,0
Gurlan tumani	20,6	0,7	43,7
Qo'shko'pir tumani	31,3	1,0	108,1
Urganch tumani	52,2	1,7	110,9
Hazorasp tumani	25,1	0,8	88,3
Tuproqqa'l'a tumani	2 383,5	79,3	109,9
Xonqa tumani	77,0	2,6	136,0
Xiva tumani	22,5	0,7	99,0
Shovot tumani	33,2	1,1	118,0
Yangiariq tumani	26,4	1,0	118,3
Yangibozor tumani	19,1	0,6	98,2

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi


(79,3 %), shuningdek, Urganch shahrida 7,7 % ni, Xonqa tumanida 2,6 % ni va Urganch tumanida 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni %), Bog'ot tumani (195,0 %), Urganch shahri (139,9 %), Xiva shahri (138,2 %), Xonqa tumani (136,0 %), Yangiariq tumani (118,3 %) va Shovot tumani (118,0 %) tashkil qildi.

### **Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, % da)**

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- iyul oylariga nisbatan Urganch shahrida (135,2 %), Bog'ot tumanida (133,6 %), Yangibozor tumanida (122,4 %), Xiva shahrida (121,7 %), Qo'shko'pir tumanida (118,6 %), Xonqa tumanida (117,3 %), Yangiariq tumanida (114,7 %), Shovot tumanida (113,5 %), Hazorasp tumanida (112,3 %), Tuproqqal'a tumanida (109,9 %), Urganch tumanida (105,2%), Gurlan tumanida (100,1 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Xiva tumanida (93,4 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2021 - yil yanvar- iyul oylarida, ming so‘m)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2020 - yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 333,9</b>	<b>108,5</b>	<b>2 087,1</b>	<b>112,8</b>
Urganch sh.	7 501,2	109,7	4 167,7	134,4
Xiva sh.	845,5	102,8	667,6	120,0
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	1 476,1	106,8	704,9	131,8
Gurlan	1 855,6	115,6	663,6	99,1
Qo‘siko‘pir	1 110,5	143,9	328,9	117,4
Urganch	1 808,0	114,8	673,5	103,6
Hazorasp	930,7	109,9	274,1	110,9
Tuproqqał'a	53 223,2	104,8	42 982,7	108,9
Xonqa	1 598,3	102,7	1 085,9	115,9
Xiva	593,4	61,3	292,4	92,0
Shovot	2 056,5	106,1	475,0	112,1
Yangiariq	849,9	60,3	408,8	113,4
Yangibozor	991,6	105,7	663,0	121,1

Yuqoridaǵi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 3 333,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 % darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yil yanvar-iyul oylarida Urganch shahrida 5 849,8 ming so‘mdan 7 501,2


ming so'mga, Xiva shahrida 729,7 ming so'mdan 845,5 ming so'mga, Bog'ot tumanida 1 040,6 ming so'mdan 1 476,1 ming so'mga, Gurlan tumanida 1 326,2 ming so'mdan 1 855,6 ming so'mga, Qo'shko'pir tumanida 641,4 ming so'mdan 1 110,5 ming so'mga, Urganch tumanida 1 168,3 ming so'mdan 1 808,0 ming so'mga, Hazorasp tumanida 740,6 ming so'mdan 930,7 ming so'mga, Tuproqqal'a tumanida 45 043,6 ming so'mdan 53 223,2 ming so'mga, Xonqa tumanida 1 316,5 ming so'mdan 1 598,3 ming so'mga, Shovot tumanida 1 534,6 ming so'mdan 2 056,5 ming so'mga, Yangibozor tumanida 450,5 ming so'mdan 991,6 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (53 223,2 ming so'm), Urganch shahrida (7 501,2 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 333,9 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 2 087,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,8 % ga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-iyul oylarida Urganch shahrida 3 100,1 ming so'mdan 2021 - yil yanvar-iyul oylarida 4 167,7 ming so'mga, Xiva shahrida 556,4 ming so'mdan 667,6 ming so'mga, Bog'ot tumanida 534,9 ming so'mdan 704,9 ming so'mga, Qo'shko'pir tumanida 280,3 ming so'mdan 328,9 ming so'mga, Urganch tumanida 650,0 ming so'mdan 673,5 ming so'mga, Hazorasp tumanida 247,1 ming so'mdan 274,1 ming so'mga, Tuproqqal'a tumanida 39 466,8 ming so'mdan 42 982,7 ming so'mga, Xonqa tumanida 937,2 ming so'mdan 1 085,9 ming so'mga, Shovot tumanida 423,6 ming so'mdan 475,0 ming so'mga, Yangiariq tumanida 360,5 ming so'mdan 408,8 ming so'mga, Yangibozor tumanida 547,4 ming so'mdan 663,0 ming so'mga o'sgani kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (42 982,7 ming so'm), Urganch shahrida (4 167,7 ming so'm) aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 087,1 ming so'm) yuqoriligi kuzatilgan.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- iyul oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 394,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab

chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqa'l'a tumani (3,6 %), Shovot tumani (17,9 %), Urganch shahri (21,3 %) va Qo'shko'pir tumanida (27,6 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Bog'ot tumani (50,3 %), Urganch tumani (49,6 %), Xonqa tumani (40,7 %), Gurlan tumani (36,2 %), Hazorasp tumani (31,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




### Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 809,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishda tutgan ulushi 12,8 % ni tashkil etdi.



## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Viloyatda 2021-yilning 1-avgust holatiga, 4 033 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 819 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 20,3 %) Urganch shahriga, 476 tasi (11,8 %) Urganch tumaniga, 357 tasi (8,9 %) Xiva shahriga, 349 tasi (8,7 %) Xonqa tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021 - yil yanvar - iyul oylarida viloyatda 630 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi. Ulardan 107 tasi Urganch shahrida, 89 tasi Hazorasp tumanida, 63 tasi Urganch tumanida, 62 tasi Xonqa tumanida, 48 tasi Xiva shahrida, 42 tasi Shovot tumanida tashkil etilgan.

